

O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-IQTISODIY SOHALARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH VA RAQAMLASHTIRISH ODIMLARI

Shuxratova Zarina Akmal qizi

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Sherzod Iskandarov**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni innovatsion rivojlantirish va raqamlashtirishning asosiy bosqichlari, erishilgan natijalari va strategik ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, moliya va qishloq xo'jaligi kabi ustuvor sohalarda joriy etilgan «Elektron hukumat», FinTech va «Aqlli qishloq xo'jaligi» kabi zamonaviy texnologiyalar yoritilgan. Shuningdek, maqolada raqamli infratuzilmani hududlararo teng ta'minlash va aholining raqamli savodxonligini oshirish kabi hal etilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar. *Innovatsion rivojlanish, raqamlashtirish, DMED, E-Hukumat, Ijtimoiy Himoya Yagona Reestri, Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi, YIDXP, FinTech, E-IMZO.*

Jahon iqtisodiyoti global innovatsiyalar va raqamli transformatsiya davriga kirgan bir paytda, har qanday milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi bevosita uning innovatsion salohiyati va raqamli texnologiyalarni ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga joriy etish darajasi bilan belgilanmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan «Yangi O'zbekiston» taraqqiyot strategiyasi (2022–2026 yillar) doirasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini modernizatsiya qilish, davlat va jamiyat boshqaruvini raqamlashtirish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Innovatsion rivojlanish va raqamlashtirish – bu shunchaki texnologik yangilanish emas, balki mamlakatning asosiy maqsadiga erishishning muhim sharti hisoblanadi:

Raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, xarajatlarni optimallashtiradi va xalqaro investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytiradi. Raqamlashtirish hisobiga yashirin iqtisodiyot ulushi kamayadi, soliq bazasi kengayadi va byudjet tushumlari ortadi. Xususan, bu masalada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli Farmonida «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini amalga oshirishda aholi punktlarini Internet tarmog‘iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini 2,5 milliongacha ko‘paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78 foizdan 95 foizga yetkaziladi [1:1].

Ijtimoiy sohalarning raqamlashtirilishi, xususan, tibbiyot va ta’limdagi elektron xizmatlar byurokratik to‘siqlarni bartaraf etib, aholining kundalik turmush darajasini sezilarli yaxshilaydi. Davlat xizmatlarining yagona platformalarga (masalan, YIDXP) o‘tkazilishi korrupsiyaviy xavflarni kamaytirib, jamiyatda shaffoflik va adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Raqamli va innovatsion iqtisodiyot yangi avlod bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lgan yuqori malakali kadrlarni talab qiladi. Innovatsion muhitni shakllantirish yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy startaplar va yuqori texnologiyali loyihalarga jalb qilish uchun asos yaratadi. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sohasida yangi ish o‘rinlari yaratish va mavjud ishchi kuchining texnologiyalarga moslashuv jarayoni “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

asosida olib borilmoqda. 2023-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda raqamli texnologiyalar bilan bog'liq ish o'rinlari o'sish sur'ati 10% dan oshgan [2:5].

Ijtimoiy sohalarga innovatsiyalarning joriy etilishi strategik jihatdan «Inson qadri uchun» tamoyiliga asoslanadi. Bu yerda asosiy maqsad aholi turmush darajasi va sifatini oshirish, xizmatlarning ochiqqligi va qulayligini ta'minlashdir. Raqamlashtirishning asosiy maqsadi ta'lim sifatini oshirish va kadrlar salohiyatini yuksaltirishdir. Amaliy innovatsiyalar jumlasiga, birinchidan, o'quv jarayoniga yangi avlod elektron darsliklari, multimedia qo'llanmalari va masofaviy o'qitish tizimlarini (LMS) joriy etish kiradi, bu esa o'qish joyidan qat'iy nazar yuqori sifatli materiallarga ega bo'lish imkonini beradi. Ikkinchidan, umumiy o'rta ta'limda Kundalik.com tizimi yoki shunga o'xshash platformalarning tatbiq etilishi orqali o'quvchilarning baholari, davomati va uy vazifalari to'liq raqamlashtirildi, bu esa ota-onalar va maktab ma'muriyati o'rtasidagi axborot almashinuvini shaffof qildi. Uchinchidan, OTMlarga qabul jarayonlari to'liq raqamlashtirilib, abituriyentlarning hujjat topshirishdan tortib, natijalarni e'lon qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlari Davlat Test Markazi (DTM) orqali onlayn platformalarga o'tkazildi. Ushbu keng qamrovli qadamlar jamiyatda raqamli savodxonlikni oshirish va innovatsion tafakkurga ega kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam asos yaratadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi innovatsion o'zgarishlar aholi salomatligini saqlashda zamonaviy, tezkor va shaffof tizimni yaratishga qaratilgan. 2025 yilda 20 dan ortiq modulni o'z ichiga olgan DMED yagona elektron axborot tizimi yaratilib, 36 milliondan ortiq aholining tibbiy ma'lumotlari dastur bazasiga kiritildi
SJIF:5.219

va o'zbekistonliklarning yagona elektron tibbiy kartasi (MED-ID) shakllantirildi. Qayd qilinishicha, 40 ga yaqin klinik yo'nalish bo'yicha 400 dan ortiq protokol va davolash standartlari orqali tashxislash yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Toshkent shahri Yunusobod tumanida tajriba-sinov tariqasida "Elektron retsept" tizimi to'liq ishga tushirildi. Ta'kidlanishicha, ushbu tizim orqali kontrafakt, sifatsiz, qalbaki dori vositalarini realizatsiya qilish holatlarining oldi olinadi [3].

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish O'zbekistonda «Elektron hukumat»ni shakllantirishning asosiy ustuni bo'lib, bu jarayon aholi va tadbirkorlar uchun xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, byurokrtiyani qisqartirish va korrupsiyaviy xavflarni tubdan kamaytirish maqsadini ko'zlaydi. Raqamlashtirishning amaliy ijrosi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP, my.gov.uz) orqali amalga oshirilmoqda. Portalda hozirda 400 dan ortiq davlat xizmatlari joriy qilingan bo'lib, bu xizmatlarning aksariyati avval talab qilinadigan qog'oz hujjatlar va inson omili ishtirokisiz, proaktiv tamoyili asosida ko'rsatiladi. Xususan, E-IMZO elektron raqamli imzodan keng foydalanish, fuqarolarga davlat organlari bilan masofadan turib to'liq huquqiy munosabatlarga kirishish imkonini berdi [4]. Bunday kompleks yondashuv natijasida xizmat ko'rsatish tezligi va shaffofligi keskin oshib, O'zbekistonning «E-Hukumat» indeksi bo'yicha xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotining fundamental sohasi bo'lgan qishloq xo'jaligini raqamlashtirish suv va yer resurslaridan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga qaratilgan innovatsion ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bu jarayon «Aqlli qishloq xo'jaligi» (Smart Agriculture) konseptsiyasi asosida rivojlanmoqda [5]. Raqamlashtirish ishlari Hukumatning

qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga doir qarorlari bilan mustahkamlangan. Amaliy innovatsiyalar jumlasiga Yer resurslarini monitoring qilishning kosmik (masofaviy) usullarini qo‘llash kiradi, bu esa yerlarning holati, ekinlarning rivojlanishi va suv taqsimoti ustidan real vaqt rejimida nazorat o‘rnatish imkonini beradi. Shuningdek, turli sensorlar, dronlar va Sun‘iy intellekt (AI) asosidagi tahliliy tizimlardan foydalanib, gektariga qancha urug‘, o‘g‘it yoki suv berish kerakligini aniq belgilovchi differensial agrotexnologiyalar joriy etilmoqda. Bu usullar hosildorlikni optimallashtirish bilan birga, atrof-muhitga ta’sirni va xarajatlarni qisqartirishga xizmat qiladi, natijada sohaga innovatsion va resurs tejovchi yondashuv mustahkamlanadi.

Innovatsion rivojlanish va raqamlashtirish jarayonlari keng qamrovli bo‘lishiga qaramay, ularning to‘liq samaradorligiga erishish uchun bir qator institutsional va texnik xususiyatli vazifalarni hal etish talab qilinadi. Asosiy muammolardan biri raqamli infratuzilmani hududlararo teng ta’minlash hisoblanadi; garchi shahar markazlarida yuqori tezlikdagi internet qamrovi yetarli bo‘lsa-da, olis qishloq joylarida optik tolali aloqa kanallarining yetarli emasligi elektron xizmatlardan to‘liq foydalanishga to‘siq bo‘lmoqda. Ikkinchi muhim vazifa bu inson kapitali salohiyatini oshirishdir; ta’lim va ijtimoiy sohalardagi raqamli tizimlarni joriy etishga qaramay, aholi va davlat xizmatchilari orasida raqamli savodxonlik darajasi bir xil emasligi ulardan samarali foydalanishga xalaqit bermoqda. Bu kabi to‘siqlarni bartaraf etish uchun Hukumat strategik yechimlarni belgilagan: texnik jihatdan, barcha aholi punktlarini optik tolali tarmoqlarga ulash dasturlarini tezlashtirish; kadrlar masalasida esa, barcha yoshdagi fuqarolarni raqamli ko‘nikmalarga o‘rgatish va AKT sohasidagi

mutaxassislarni maqsadli tayyorlash bo'yicha davlat dasturlarini kengaytirish zarur hisoblanadi. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni innovatsion rivojlantirish va raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar qisqa vaqt ichida sezilarli natijalarni berdi. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida nafaqat huquqiy va institutsional asoslar yaratildi, balki xizmat ko'rsatish sifati va shaffofligini oshirish bo'yicha amaliy natijalarga ham erishildi:

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP, my.gov.uz) norqali ko'rsatiladigan elektron xizmatlar soni 400 tadan oshganligi [4] 2017-yildagi ko'rsatkichga nisbatan bir necha barobar ko'p, bu esa davlatning barcha fuqarolar bilan raqamli muloqotga o'tish tezligini isbotlaydi.

«Ijtimoiy himoya yagona reyestri» (IHYR) tizimining joriy etilishi ijtimoiy yordam mablag'larini tayinlashda shaffoflikni 100 % ga yaqin ta'minladi. Mutaxassislar hisob-kitoblariga ko'ra, bu tizim xizmat ko'rsatish jarayonini tezlashtirish hisobiga davlatning harajatlarini optimallashtirishga imkon berdi.

Moliya sohasida amalga oshirilgan raqamlashtirish tufayli naqd pulsiz to'lovlar hajmi yildan yilga sezilarli oshib bormoqda, bu esa naqd pul aylanmasini kamaytirish va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda katta ijobiy natija berdi. Onlayn to'lovlar va mobil bank ilovalaridan tortib kriptovalyutalar, investitsiyalar va sug'urtagacha bo'lgan barcha narsani qamrab oladigan FinTech texnologiyasi sohasida O'zbekistonda startaplar sonining sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Ushbu tendensiya venchur investitsiyalari hajmi bilan tasdiqlanadi: 2023-yilda fintech startaplari 2,75 million dollar jalb qilib, mamlakatda venchur kapitalini jalb qilish bo'yicha yetakchiga aylandi [6].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining innovatsiya va raqamlashtirish sohasidagi sa’y-harakatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha qirralarida sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. Shunga qaramay, infratuzilmani rivojlantirish va raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha vazifalar mavjud bo‘lib, ularni muvaffaqiyatli bartaraf etish Yangi O‘zbekistonning xalqaro raqobatbardoshligini va barqaror rivojlanishini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020) PF-6079-sonli Farmoni «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. Turdiyev Abdullo Sagdullayevich (2024), Raqamli iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlari yaratish va ishchi kuchining moslashuvi <https://zenodo.org>.
3. O‘zbekistonda aholining yagona elektron tibbiy kartasi yaratildi, Sardor Yusupov, (2025), <https://kun.uz>.
4. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) ma’lumotlari (my.gov.uz). (URL manzili: <https://www.my.gov.uz/>).
5. “Aqlli” qishloq xo‘jaligi, Iroda Toshmatova, (2021) <https://yuz.uz>.
6. FinTech sanoati sharhi: O‘zbekistonda startapchilar uchun imkoniyatlar va istiqbollar (2023/2025) <https://startupbase.uz>.